

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 166 (1227), 2024-yil 20-avgust, seshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz



YANGI SANOAT LOYIHALAR XALQIMIZNI ROZI QILISH, TURMUSH DARAJASINI YANADA YUKSALTIRISHGA XIZMAT QILADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 19-avgust kuni sanoat korxonalari, IT va ijtimoiy soha obyektlarini ko‘zdan kechirish, mahallalarda aholi hayoti bilan tanishish maqsadida Qoraqalpog‘istonga tashrif buyurdi.



Davlatimiz rahbari Qoraqalpog‘iston Respublikasiga tashrifini sanoat salohiyati bilan tanishishdan boshladi.

“Nukus Elektroapparat” qo‘shma korxonasi 2017-yilda ishga tushgan, unda elektr energiyasi tarmog‘i uchun kuchlanish qurilmalari ishlab chiqariladi. Joriy yil iyunda bu yerda 10 million dollardan ziyod mablag‘ evaziga quyosh panellarini yasash loyihasi ishga tushirildi. Uskunalar Koreya Respublikasidan keltirib o‘ratildi. Ishlab chiqarish jarayoni 100 foiz avtomatlashtirilgan. Loyihaning yillik quvvati 273 ming dona.

Bu mamlakatimizda muqobil energetikadan foydalanish borasidagi ishlarda qo‘l keladi. Hozirgacha turli inshoot va xonadonlarda 600 megavatt quvvatli quyosh panellari o‘rnatilgan. Mazkur jarayon hali davom etadi.

Qo‘shma korxona ichki bozorda talab yuqori mahsulotni mahalliy lashtirish bilan birga 4 million dollarlik eksport imkoniyatiga ham ega bo‘ldi. 70 kishi ish bilan ta‘minlandi.

Davlatimiz rahbari ish jarayonini ko‘zdan kechirdi, xodimlar bilan suhbatlashdi. Mutasaddilarga bunday korxonalarni ko‘paytirish, ularda bozor talabi yuqori mahsulotlar ishlab chiqarish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi.

Shu yerda tarmoq korxonalarida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar namoyish etildi.

Zavodning o‘zida ham 125 kilovatt quvvatli quyosh panellari o‘rnatilgan. Undan olingan elektr ichki ehtiyojlar uchun ishlatiladi, ortiqchasi hududiy elektr tarmog‘iga sotiladi.

So‘nggi yillarda yurtimizda 2 milliard dollar investitsiya hisobiga quvvati 2,6 gigavatt

10 ta quyosh va shamol stansiyalari ishga tushirildi. Shuningdek, umumiy qiymati 19 milliard dollar bo‘lgan 18,6 gigavattli 32 ta “yashil” loyiha bo‘yicha ish olib borilmoqda. Umuman, 2030-yilgacha energetika balansida qayta tiklanuvchi quvvatlar ulushini 40 foizga yetkazish maqsad qilingan.

Oxirgi yetti yilda Qoraqalpog‘iston Respublikasida 17 trillon 800 milliard so‘mlik 6 ming 784 ta loyiha amalga oshirilgan. Ularning natijasida 56 mingta ish o‘rni yaratilgan. Shu davrda 2 milliard 815 million dollarlik eksport qilingan. Bu yil respublikada umumiy qiymati 874 million dollarlik 470 ta loyiha amalga oshirilmogda.

Bu izchil davom ettirilib, Qoraqalpog‘istonda xorijiy investor va mahalliy tadbirkorlar tomonidan umumiy qiymati 9,5 milliard dollarlik 124 ta loyiha shakllantirilgan. Shundan qariyb 1 milliard 800 million dollarlik 10 ta loyiha davlatimiz rahbariga taqdimot qilindi.

Loyihalarga Xitoy, Saudiya Arabistoni, Germaniya, Rossiya, Ispaniya kabi mamlakatlar kompaniyalari investitsiya kiritmoqda. Ular energetika, issiqlik ta‘minoti, tog‘-kon va kimyo sanoati, qurilish materiallari, xizmat ko‘rsatish va boshqa tarmoqlarni qamrab olgan.

Masalan, Saudiya Arabistoni bilan hamkorlikda Nukus shahrida markazlashgan issiqlik ta‘minoti tizimini yaxshilash, Ispaniya investitsiyasi ishtirokida Qorao‘zak tumanida quyosh va shamol elektr stansiyalari qurish, germaniyalik investorlar tomonidan Nukus

tumanida misni qayta ishlash va kabellar ishlab chiqarish loyihalari rejalashtirilgan.

Mazkur 124 ta loyiha natijasida 20 mingdan ortiq aholi ish bilan ta‘minlanadi.

Davlatimiz rahbari ishbilarmonlarga har tomonlama madadkor bo‘lib, loyihalarni jadallashtirish muhimligini ta‘kidladi.

Shu kuni Qoraqalpog‘iston Respublikasida shamol elektr stansiyalari va sanoat korxonalari qurilishi boshlandi, savdo majmualari ishga tushirildi.

Marosimda Prezident Shavkat Mirziyoyev Qoraqalpog‘istonning iqtisodiy rivoji haqida so‘zldi.

Buning uchun hududda keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda. So‘nggi besh yilda sanoat, tadbirkorlik va infratuzilma sohalarida 50 dan ortiq imtiyoz va yengilliklar berilgan. Xususan, investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri yer ajratish huquqi faqat Qoraqalpog‘istonda joriy qilingan. Qiymati 50 milliard so‘mdan yuqori loyihalarga infratuzilma ham yaratib berilmoqda.

Imtiyozlar hisobiga o‘tgan davrda tadbirkorlar ixtiyorida 2 trillon so‘mdan ziyod mablag‘ qolgan.

Hududda ishbilarmonlik infratuzilmasini yaxshilash uchun 44,5 trillon so‘m mablag‘ yo‘naltirilgan. Natijada oxirgi yillarda 25 mingdan ortiq yangi tadbirkorlik subyekti paydo bo‘lgan.

Birgina o‘tgan yilda 345 million dollarlik 1 ming 400 dan ortiq loyiha amalga oshirilib, 10 mingdan ziyod yangi ish o‘rni yaratildi. Joriy

ylning birinchi yarmida 730 million dollar xorijiy investitsiya o‘zlashtirildi.

Qoraqalpog‘istonda chet el kapitali bilan tashkil etilgan korxonalar soni ham ko‘payib bormogda. 2017-yilda 73 ta xorijiy va qo‘shma korxona bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kunda ularning soni 175 taga yetdi.

Hozirda hudud iqtisodiyotiga turki beruvchi qariyb 9,5 milliard dollarlik 120 dan ortiq yangi yirik loyihalar amalga oshirilmoqda. Ushbu loyihalar 2025-2028-yillarda bosqichma-bosqich ishga tushiriladi. Natijada 20 mingdan ortiq yangi ish o‘rni, 12 trillon so‘mlik ishlab chiqarish quvvati va byudjetga 500 milliard so‘m qo‘shimcha tushum yaratiladi.

Davlatimiz rahbari qurilishi boshlanayotgan va ishga tushirilayotgan majmualarning ahamiyati haqida to‘xtaldi.

Yurtimizdagi iqtisodiy o‘rnatish sur‘atlari energetika sohasida ulkan vazifalarni qo‘y-mogda.

So‘nggi yillarda 2 milliard dollar investitsiya hisobiga quvvati 2,6 gigavatt 10 ta quyosh va shamol stansiyalari ishga tushirildi. Yil yakuniga qadar qo‘shimcha 1,5 gigavatt quvvatlar tarmoqqa ulanib, “yashil” energiya ulushi 15 foizga yetkaziladi.

Bundan tashqari, umumiy qiymati 19 milliard dollar bo‘lgan 18,6 gigavattli 32 ta “yashil” loyiha amalga oshirilmogda.

Prezidentimiz bunda Qoraqalpog‘iston Respublikasining hisssasi katta ekanini ta‘kidladi. Nufuzli tadqiqot institutlari hisob-kitoblariga ko‘ra, Qoraqalpog‘istonda 680 gigavatt quyosh, 120 gigavatt shamol energiyasi salohiyati bor.

2030-yilga qadar Qoraqalpog‘istonda 11 milliard dollar to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiya hisobiga, jami 10,3 gigavatt quvvatga ega 10 ta yirik shamol elektr stansiyasi qurilishi rejalashtirilgan. Bu loyihalar to‘liq ishga tushishi hisobiga yiliga 35 milliard kilovatt soat “yashil” energiya olinadi.

Quvvat uzatishda barqarorlikni ta‘minlash uchun Qo‘ng‘irot, Beruniy va Qorao‘zak tumanlarida jami 400 megavattli 3 ta elektr energiyasini saqlash tizimi barpo etiladi.

19-avgust kuni ushbu loyihalarining bir nechta bo‘yicha qurilish ishlari boshlandi. Birinchisi, Xitoyning “Sany Renewable” kompaniyasi tomonidan Qo‘ng‘irot tumanida quriladigan qiymati 1 milliard 200 million dollarlik, 1 gigavatt quvvatli shamol elektr stansiyasi. Ikkinchisi, Saudiya Arabistonining “ACWA Power” kompaniyasi bilan hamkorlikda Beruniy va Qorao‘zak tumanlarida tashkil etiladigan qiymati 250 million dollarlik 100 megavatt elektr energiyasini saqlash tizimiga ega 200 megavatt quvvatli shamol elektr stansiyasi.

Kelgusida ularda yiliga 4 milliard 200 million kilovatt soat yoki 1 million 750 ming xonadonning bir yillik iste‘moliga teng “yashil” energiya ishlab chiqariladi. Natijada qariyb 1,3 milliard metr kub tabiiy gaz tejaldi va atmosfera zararlanishi qariyb 2 million tonnaga qisqaradi.

Ahamiyatli, bu bilan bir paytda Qo‘ng‘irot tumanida shamol turbinasi qismlari, minoralari va parraklarini ishlab chiqarish bo‘yicha korxonalar qurilishi ham boshlanmogda.

Natijada yiliga 1000 megavatt quvvatli shamol turbinasi qismlari va 120 ta minorani ishlab chiqarish mahalliy lashtirilib, 100 million dollarlik import o‘rni bosuvchi mahsulotlar tayyorlanadi. Bundan tashqari, Nukus tumanida 24 million dollar investitsiya hisobiga yiliga 20 million dona isitish radiatorlari ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi.

Shahar va tumanlarni obod qilish, aholi uchun munosib turmush sharoitlari yaratish masalalari ham e‘tiborda. Shu kunlarda sanoat, qishloq xo‘jaligi, turizm va xizmat ko‘rsatish sohalarida 62 million dollarlik 12 ta loyiha ishga tushirilmoqda. Marosimda ulardan ikkita — Beruniy tumani va Nukus shahridagi yirik savdo majmualari ochildi.

Davlatimiz rahbari ramziy tugmani bosib, yangi inshootlarning qurilishi va faoliyatini boshlab berdi. Barchani mamlakatimiz iqtisodiyotida katta ahamiyatga ega ushbu loyihalar bilan tabrikladi.

So‘ng Prezident Shavkat Mirziyoyev Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parkining Qoraqalpog‘iston filialini borib ko‘rdi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda axborot texnologiyalari sohasi jadal rivojlanmogda. Yeti yil oldin yurtimizda IT kompaniyalari soni 147 ta bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kunda 2 mingtadan oshdi. Ularda 30 ming nafar xodim yuqori daromadli ish bilan band. 70 ming nafardan ziyod yoshlar IT bilan mustaqil shug‘ullanyapti.

Davomi 2-betda

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining QARORI

IMOM TERMIZIY TAVALLUDINING 1200 YILLIGINI KENG NISHONLASH TO‘G‘RISIDA

Muqaddas islom dini ilmlari rivojiga beqiyos hissa qo‘shgan buyuk olim, vatandoshimiz Imom Abu Iso Muhammad Termiziyning (keyingi o‘rinlarda — Imom Termiziy) ulkan ilmiy merosini yanada chuqur o‘rganish, xalqimiz va jahon jamoatchiligi o‘rtasida keng targ‘ib etish, ushbu yo‘nalishda olib borilayotgan tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash, yosh avlodning ma‘naviy-ruhiy olamini boyitish, ularning qalbidagi milliy iftixor, Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg‘usini yanada kuchaytirish maqsadida:

1. Din ishlari bo‘yicha qo‘mita, O‘zbekiston musulmonlari idorasi, Surxondaryo viloyati hokimligi, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining 2024-yil oktabr oyida Imom Termiziy tavalludining 1200 yilligini keng nishonlash to‘g‘risidagi taklifi ma‘qullansin.

2. Imom Termiziy tavalludining 1200 yilligiga bag‘ishlangan tadbirlarni o‘tkazish va davlat organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha tashkiliy qo‘mita (keyingi o‘rinlarda — Tashkiliy qo‘mita) tuzilsin hamda uning tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tashkiliy qo‘mita (A.Aripov) bir hafta muddatda Imom Termiziy tavalludining 1200 yilligini yuqori saviyada nishonlash bo‘yicha, jumladan, quyidagilarni nazarda tutuvchi chora-tadbirlar dasturini tasdiqlasin:

Imom Termiziyning “Ash-Shamoil al-Muhammadiyya” va “Sunani Termiziy” asarlarini moturidiylik aqidasi va hanafiylik mazhabiga tayangan ko‘p jildlik akademik tarjima va sharhini tayyorlash hamda ularni nashr etish;

Imom Termiziy hayoti va ilmiy merosining mohiyatini va bugungi kundagi

ahamiyatini ochib beruvchi ilmiy-ommabop hujjatli film yaratish va sahnalashtirilgan spektakl namoyishini tashkil etish;

Imom Termiziy tavalludining 1200 yilligiga bag‘ishlangan esdalik suvenirlarini muomalaga chiqarish hamda pochta markalari, taqvimlar, uning hayoti va ilmiy merosini yoritib beruvchi boshqa ko‘rgazmali axborot vositalari turkumini yaratish;

2024-yil oktabr oyida Toshkent shahrida “Islom — tinchlik va ezigulik dini” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya hamda konferensiya doirasida Termiz shahrida

“Imom Termiziy ilmiy merosining islom sivilizatsiyasida tutgan o‘rni” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman o‘tkazish;

Davomi 2-betda

Bir bo‘lsak — yagona xalqmiz, birlashsak — Vatanimiz!

YANGI QORAQALPOG‘ISTONNI BARPO ETISHDA TADBIRKORLAR FAOL ISHTIROK ETMOQDA

Mamlakatimizda tadbirkorlikni rivojlantirish davlat iqtisodiy siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlari qatoriga kiritildi. Uni tashkil etish va qo‘llab-quvvatlash borasida ulkan tadbirlar amalga oshirilmogda.

Jumladan, tadbirkorlar bilan ishlash barcha bo‘g‘inlardagi rahbarlarning eng muhim vazifasidan biriga aylantirildi, alohida hudud yoki tarmoqlarda tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha maxsus farmon va qarorlar tayyorlanmogda, videoselektor yig‘ilishlari o‘tkazilmogda, ularda sohaning kelgusi taraqqiyotiga oid chora-tadbirlar ishlab chiqilmogda.

Davlatimiz rahbari yig‘ilishlardagi chiqishlarida ham tadbirkorlikni rivojlantirishning zaxira va imkoniyatlarini ochib



berishga juda katta e‘tibor qaratmogda. Mazkur maqolada tadbirkorlikni rivojlantirish, unga aholini keng jalb etish, sohani davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash borasida

amalga oshirilayotgan tadbirlar Qoraqalpog‘iston Respublikasi misolida tahlil qilinadi.

Davomi 3-betda



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

Bir bo‘lsak — yagona xalqmiz, birlashsak — Vatanmiz!



2023-yili qurilish sohasida 5,3 trillion so‘mlik ish bajarilib, tarmoq jami 3,2 mingdan oshiq aholini ish bilan ta‘minlagan. Qurilish ishlarida kichik biznes ulushi esa 2017-yildagi 77,4 foizdan 2023-yilda 90 foizga yetdi.

YANGI QORAQALPOG‘ISTONNI BARPO ETISHDA
TADBIRKORLAR FAOL ISHTIROK ETMOQDA

Odil OLIMJONOV,
*Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar
markazi bosh ilmiy xodimi,
iqtisodiyot fanlari doktori,
professor*

Boshlanishi 1-betda

Ishbilarmonlar safi qariyb
70 foiz kengaydi

Qoraqalpog‘iston Respublikasida keyingi yetti yilda tadbirkorlikni rivojlantirish borasida ulkan tadbirlar amalga oshirildi, ishlar muhiti tubdan yaxshilandi. Harakatlar va Taraqqiyot strategiyalari, Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2016-yilgi va 2021-yilgi saylovoldi dasturlari, qator farmon va qarorlarida yangi Qoraqalpog‘istoni bunyod etish bo‘yicha katta maqsad va vazifalar belgilab olindi, g‘oyat ulkan rejarlar tuzildi. Bu vazifalar yillik davlat dasturlari, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bo‘yicha hududiy dasturlarda, yig‘ilishlarda yanada aniqlashtirilib borilmoqda.

Mazkur hujjatlarda tadbirkorlikni rivojlantirish masalalariga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Jumladan, *Qoraqalpog‘istoni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, tadbirkorlikni kengaytirish, ishlabarmonlik muhitini yanada yaxshilash va tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash uchun shu vaqt mobaynida barcha manbalardan jami 5,8 milliard dollarlik investitsiya loyihalari amalga oshirildi.*

Natijada Qoraqalpog‘istonda tadbirkorlik bilan shug‘ullanayotgan aholi soni (YTT bilan birgalikda) tobora oshib bormoqda. Masalan, 2017-yilda tadbirkorlik subyektlari soni 35,3 mingta bo‘lgan bo‘lsa, 2023-yilga kelib, 59,6 mingtaga yetdi yoki 68,7 foiz oshdi.

Jumladan, kichik tadbirkorlik subyektlari soni 2017-yildagi 22,4 mingdan 2023-yilda 39,3 mingga (o‘shish — 1,8 barobar) yetdi. 2024-yilning 1-iyul holatiga kichik tadbirkorlik subyektlarining 5,5 mingtasi (25,1 foiz) sanoatda, 3,2 mingtasi (14,5 foiz) qishloq xo‘jaligida, 13,3 mingtasi (60,4 foiz) xizmat ko‘rsatish sohaslarida faoliyat ko‘rsatmoqda.

Aholi turmush sharoitini yaxshilash maqsadida oxirgi yetti yil mobaynida Qoraqalpog‘istonda 508 mingga yaqin ish o‘rni yaratildi.

2017-2023-yillar davomida Qoraqalpog‘istonning yalpi hududiy mahsuloti hajmi 3 barobar oshdi va 32,9 trillion so‘mga yetdi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi bu davrda 17,8 trillion so‘mga yetdi yoki 2,6 barobar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish esa 3,6 barobar o‘sd. Ko‘rsatilayotgan xizmat turlarining kengayishi va ularga talabning tobora ortishi natijasida bozor xizmatlari hajmi 3,6 barobar oshib, 2023-yilda 12,9 trillion so‘mni tashkil qildi.

Bunday yuqori o‘shish sur‘atlarini ta‘minlashda tadbirkorlik subyektlarining ham o‘rni katta bo‘ldi. Ularning yalpi hududiy mahsulot ishlab chiqarishdagi ulushi

2017-yildagi 55,7 foizdan 2023-yilda 58,7 foizga yetdi.

Avval 16 tumanidan 12 tasi dotatsiyada bo‘lgan Qoraqalpog‘iston bugungi kunga kelib, o‘z daromadiga ega hududga aylandi. Xususan, tadbirkorlar sa’y-harakatlari bilan 15 trillion so‘m investitsiya hisobiga 5300 dan ziyod loyiha amalga oshirildi.

Infratuzilma obyektlari va aholiga uy-joy qurishda ham tadbirkorlar faol ishtirok etmoqda. Masalan, mazkur davrda infratuzilmani rivojlantirishga katta e‘tibor qaratilib, jami 3528 kilometr suv ta‘minoti tarmog‘i va 90,8 kilometr gaz quvuri foydalanishga topshirildi. O‘tgan yetti yil mobaynida hududda 6 million 217 ming kvadrat metr uy-joy qurildi, maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida 21,2 ming tarbiyalanuvchi, maktablarda 58,8 ming o‘quvchi o‘rni yaratildi.

2023-yili qurilish sohasida 5,3 trillion so‘mlik ish bajarilib, tarmoq jami 3,2 mingdan oshiq aholini ish bilan ta‘minlagan. Qurilish ishlarida kichik biznes ulushi esa 2017-yildagi 77,4 foizdan 2023-yilda 90 foizga yetdi.

Yashillik Mo‘ynoqqa yangi
imkoniyatlar yaratyapti

Orol dengizining qurigan tubida 2018-2024-yillar oraliq‘ida jami 1865,3 ming gektar maydonda fitomelioratsiya ishlari bajarildi. Buning uchun jami 7434,6 tonna cho‘l o‘simliklari urug‘lari tayyorlandi. Shundan saksovl 4639 tonna, qorabaraq 2016 tonna, cherkez 5 ming tonna, qandim 665,6 tonna, boshqa turdagi cho‘l o‘simliklaridan 109 tonna urug‘ jamlanib, ekildi. Urug‘ jamg‘arishlariga Mo‘ynoq tumani aholisi ham jalb etilib, yiliga ishsiz 1000 kishining bandligi ta‘minlandi. Natijada mo‘ynoqliklar tomonidan jami 1712,5 tonna urug‘ yig‘ildi. Orol dengizining qurigan maydonida ekilgan o‘rmonzorlar qum ko‘chishi va chang-tuz havoga ko‘tarilishining oldini oladi, ekologiyani yaxshilashga xizmat qiladi.

O‘rmon massivlari yaratilishi bu joylarda tadbirkorlikning turli yo‘nalishlarini rivojlantirishga sharoit yaratadi. Masalan, chorvachilik va ekoturizmi yo‘lga qo‘yib, sayyohlarni jalb qilish orqali tadbirkorlikni rivojlantirib, yangi ish o‘rinlari ochilishiga sabab bo‘ladi.

51 ming oilaning uy-joy sharoiti yaxshilandi, 401 ta mahallada qurilish-ta‘mirlash ishlari bajarildi. Natijada aholining turmush darajasi oshdi va ularda biznes bilan shug‘ullanishga moliyaviy imkoniyat paydo bo‘ldi.

Jozibador biznes muhiti va hudud aholisiga qo‘shimcha qulaylik yaratish maqsadida Prezidentimizning 2022-yil 31-avgustdagi “Qoraqalpog‘iston Recpublikasida tadbirkorlik, innovatsion texnologiyalar va infratuzilmalarni jadal sur‘atlarda rivojlantirish orqali aholi farovonligini oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoniga asosan, foyda, aylanmadan soliq, yer va mol-mulk



solliqlari 2 barobar pasaytirildi, ijtimoiy soliq 1 foiz qilib belgilandi.

Bundan tashqari, kichik biznes va xizmat ko‘rsatish sohaslarini jadal rivojlantirish maqsadida hudud uchun maxsus imtiyozlar joriy etildi. Mo‘ynoq, Taxtak‘pir, Bo‘zatov, Qo‘ng‘irot, Shumanay, Qorao‘zak,

mamlakatimizda “mahalla yettligi” tizimi joriy etilgandi. Bu borada Qoraqalpog‘istonning 452 ta mahalla va ovulida hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, profilaktika inspektori, ijtimoiy xodim va soliq inspektori sifatida 2486 yosh ish boshlagani ayni muddao bo‘ldi.



Qonliko‘l, Kegeyli va Chimboyda bo‘sh turgan davlat obyektlarini tadbirkorlarga sotishda auktsion savdoda boshlang‘ich narx baholash qiymatining 50 foizi miqdorida belgilandi. To‘lovlar 2 oy ichida to‘liq to‘lab berilsa, 20 foiz chegirma beriladigan bo‘ldi. To‘lovlarni bo‘lib-bo‘lib to‘lashga ham ruxsat bor. Bu tartib qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalarini sotib olishiga ham tatbiq etildi.

Butun mamlakatimizda bo‘lgani kabi Qoraqalpog‘istonda ham aholini munosib ish va daromad bilan ta‘minlash, kambag‘allikni qisqartirish eng o‘tkir va dolzarb masalalardan. Ularni yechishda “quyidan tepaga” usulida ishlash juda muhimdir. Shu munosabat bilan

Hokim yordamchilari 2024-yilning o‘zida 6500 ta yangi tadbirkorlik subyektni tashkil etish, 120 mingta ish o‘rni yaratish, 10,8 ming ishsiz aholini kasb-hunarga o‘qitish rejaralarini tuzgan. Ushbu vazifalarni bajarish uchun 355,4 milliard so‘m imtiyozli kredit va 20 milliard so‘m subsidiya ajratish nazarda tutilgan.

2024-yilning 6 oyida 6194 ta yangi tadbirkorlik subyekti tashkil etilib, 68 mingta ish o‘rni yaratildi, 5 ming ishsiz aholi kasb-hunarga o‘qitildi. Ushbu vazifalarni bajarish uchun 226 milliard so‘m imtiyozli kredit va 11,5 milliard so‘m subsidiya ajratildi.

Kamarbastalik

Qoraqalpog‘istoni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda Toshkent shahri va barcha viloyatlar tadbirkorlari ishtirok etmoqda. Ular 2022-2024-yillarda o‘zlariga birkirilgan shahar va tumanlarda qiymati 524 million dollarlik 305 ta yangi loyiha bo‘yicha ish boshladi, natijada 18,6 mingdan ziyod yangi ish o‘rni yaratildi.

Namanganlik tadbirkorlar Qorao‘zak tumanida jami 2,5 ming gektar maydonda bog‘ tashkil qilmoqda. Sanoat va boshqa yo‘nalishlarda ham 16 ta loyiha ro‘yobga chiqarilmoqda. Ularda mingdan ortiq yangi ish o‘rni ochildi. Namanganlik “Lider Astey”s”, “FNX export consulting group”, “Namangan Nukus golden bog‘lari”, “Stadionstroy” va boshqa korxonalar tomonidan logistika, chorvachilik va ishlab chiqarish (granit, metalloprokat, gipsokarton, qizilmiya va un mahsulotlari) liniyalari yaratildi. Ularda qorao‘zaklik 300 ayol ish bilan ta‘minlandi.

Sirdaryo viloyatidagi “Best san oyl” korxonasi Qonliko‘l tumanida loyiha qiymati 256 milliard so‘m bo‘lgan 3 ta (10 ming tonna moyli ekinlarni qayta ishlash, 250 tonna moyli ekin yetishtirish va 1300 tonna qandolat ishlab chiqarish) korxona faoliyatini yo‘lga qo‘ydi va natijada 650 ta yangi ish o‘rni tashkil etildi.

Toshkent shahridagi “AKFA Assembl” korxonasi tomonidan Nukus shahrida loyiha qiymati 65,5 milliard so‘m bo‘lgan, yiliga 300 ming kvadrat metr zamonaviy eshik va rom ishlab chiqarish loyihasi ishga tushirildi, 230 ta ish o‘rni ochildi. Bunday misollar juda ko‘p. Tadbirkorlikni rivojlantirishda mahalliy lashtirishning ham o‘rni katta. Uni rag‘batlantirish maqsadida maxsus jamg‘arma tashkil etildi. Jamg‘armadan import o‘rmini bosuvchi mahsulot ishlab chiqargan va samarali ishlayotgan mahalliy tadbirkorlarga subsidiya va soliq imtiyozlari berilmoqda.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida 2023-yilda ichki va tashqi bozorlarda xaridorgir mahsulotlarni ishlab chiqarishni mahalliy lashtirish dasturiga asosan, 40 loyiha doirasida 425,1 milliard so‘mlik (34,5 million AQSH dollari) import o‘rmini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yib, bo‘yicha yillik reja tasdiqlangan edi. Unga asosan, 2023-yil yakuni bilan loyihalar bo‘yicha 34 turdagi 671,6 milliard so‘mlik mahsulot ishlab chiqarildi va reja 157,9 foiz bajarildi.

Jumladan, DSP va LDSP mahsulotlar, quyosh energiyasi yordamida suv istitik, polietilenli iplardan to‘r, issiqxonalar uchun profilidan karkas, bo‘yoq mahsulotlari ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi.

Qoraqalpog‘iston iqtisodiyotini yanada rivojlantirish, aholini ish bilan ta‘minlash va farovonligini oshirishda qishloq xo‘jaligining ahamiyati juda katta. 2023-yilda ilgari foydalanishdan chiqib ketgan 13,1 ming gektar yer qayta o‘zlashtirildi. Umuman olganda, birkirilgan viloyatlar kelgusi uch yil davomida 92,5 mingga yaqin gektar yer qayta o‘zlashtirish mo‘ljallanmoqda. Natijada o‘n minglab yangi ish o‘rni yaratiladi, tadbirkorlikni rivojlantirish va kambag‘allikni qisqartirishga katta hissa qo‘shiladi.

Agrar sohada yana bir yangilik boshlandi. Paxta va g‘alla maydonlari hisobidan 6 ming gektarni bir oy muddatda tanlov asosida, birinchi navbatda, “Temir daftar”dagi ehtiyojmand aholiga shaffof mexanizm asosida ajratildi.

Paxta va g‘alla hosildorligini oshirish agrar soha samaradorligini yanada ko‘tarishning muhim usulidir. Shu bois, bu yil 4,1 ming gektarda tomchilatib sug‘orish tizimi joriy etilib, 28,5 ming gektar yer lazerli tekislanadi va buning hisobiga hosildorlik paxtachilikda 30,7 sentnerga, g‘allachilikda 45,1 sentnerga yetkaziladi.

Kelgusi istiqbollar

Prezidentimiz raisligida joriy yil 10-yanvar kuni o‘tkazilgan yig‘ilishda Qoraqalpog‘istonda

tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha belgilangan vazifalarni amalga oshirish holati tahlil qilindi va kelgusi maqsadlar belgilab olindi.

2024-yilda hududda tadbirkorlikni yanada rivojlantirish choralarini ko‘rilmogda. Zero, ayni paytda Qoraqalpog‘iston aholisi 2 milliondan oshdi va har yili mehnat bozoriga 50 ming yosh kirib kelmoqda. Ularni zamonaviy kasb-hunarlariga o‘qitib, daromadli ish va munosib yashash sharoitlari bilan ta‘minlash kerakligiga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Jumladan, sanoat ustun darajada rivojlantiriladi. 2024-yili sanoat tarmoqlarida 2 trillion so‘mlik yangi quvvatlar yaratilib, uning mahsulot ishlab chiqarish hajmi 23 trillion so‘mga yetkaziladi. Hudud sanoatining yetakchi yo‘nalishlari bo‘lgan to‘qimachilik, elektrotexnika, farmatsevtika, qurilish materiallari tarmoqlarida 5 trillion so‘mlik 24 ta yirik loyiha ishga tushiriladi.

Hududda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun yaratilgan jozibador muhit unga xorijiy investitsiya jalb qilish imkoniyatini oshirmogda. 2024-yilda Qoraqalpog‘istonga 2 milliard 100 million dollar xorijiy investitsiya jalb etish choralarini ishlab chiqilgan. Ular hisobiga sanoatda 206 ta, xizmat ko‘rsatish sohasida 240 ta, qishloq xo‘jaligida 34 ta investitsiya loyihasi amalga oshirildi. Yangi quvvatlarda 13 mingga yaqin yuqori daromadli ish o‘rni ochildi.

Mintaqada sanoat, qishloq xo‘jaligi, turizm va boshqa xizmatlar jadal rivojlanayotgani eksport imkoniyatini oshirmogda. 2023-yilda eksport hajmi 326,5 million dollarni tashkil etgan. 2024-yil 6 oylikda esa 186,7 million dollarlik eksport qilindi va bu o‘tgan yilning mos davridagiga nisbatan



Mustaqilligimizning 33 YILLIGIGA INTERVYU

Tadbirkorlar doim mamlakat taraqqiyotida muhim o'ringa ega bo'lgan. Negaki, shu soha sabab iqtisodiy barqarorlikka erishiladi. Bu o'z-o'zidan ta'lim rivoji, ishsizlikka barham berish kabi ko'plab ijtimoiy masalalarga yechim bo'ladi. Shu ma'noda, ishbilarmonlarni yurtga eng ko'p nafi tegadigan vatanparvarlar desak, mubolag'a bo'lmas.

“Yangi O'zbekiston” gazetasining “Mustaqilligimizning 33 yilligiga 33 intervyu” rukni orqali 20-avgust — Tadbirkorlar kuni munosabati bilan bir guruh soha vakillariga minbar berdik. Yurtning chinakam farzandlari bo'lgan ishbilarmonlarning fikri, ota makonimizga bo'lgan mehri va dil izhori Siz aziz o'quvchini bafarq qoldirmaydi, degan umiddamiz.

Tahririyat

MEN NECHUN SEVAMAN O'ZBEKISTONNI?

Vatanning har qarich yeri qadrli



Abdulla YARLAQABOV,
*Sayxunobod tumanidagi
“G'allakor hamkor”
fermer xo'jaligi rahbari,
“Ilg'or fermer” ko'krak nishoni
sohibi*

Ona yurt tuprog'ı, degan jumla oddiy, samimiy va ayni paytda zalvarli. Uning inson ko'nglida qanday qilib mustahkam joy olishini, muqaddasligini hech bir chiroyli so'z bilan to'la ifodalab bo'lmaydi.

Vatanga mehr-muhabbat, sog'inch uning har qarich yeriga munosabat va qarashlarimizda aks etsa kerak. Inson o'zi tug'ilib ulg'aygan zaminning shahar-u qishloqlarini, tog'-u dashtlarini birdek yaxshi ko'radi. Ma'naviyatning tayanchi bo'lgan o'lmas qadriyatlarini, ezgu urf-odatlarini targ'ib etadi. Aytaylik, kimdir ota-bobomdan qolgan dalalarni yaxshi ko'raman, desa bu ham Vatanga mehr va sadoqatini bildiradi. Agar boshqa biri boshidagi do'ppi bilan faxrlansa, u ham shu zaminga mehning timsoli bo'la oladi.

Xullas, har birimiz o'z tug'ilgan go'shamizni qanday bo'lsa, shundayligicha

sevamiz. Uning tuprog' ko'chalaru katta-kichik ariqlari, barchasi o'zgacha ko'rinadi. Biror muddat ko'rmay sog'inganingizda uning birgina giyohi ham ko'ngilda boshqacha hissiyot paydo qiladi.

Toshkent, Buxoro, Samarqand, Xiva kabi tarixiy kentlar-u zamonaviy shahar va qishloqlarimiz bilan birga dasht-u dalalarimiz ham bizga Vatan. Shu bois, ular qadrli va muqaddas. Xalqimiz o'z mehnati bilan shaharlar va qishloqlarni obod qilib yashab kelyapti. Ana shu mehnatkash el qanday davr, shart-sharoit bo'lishiga qaramay, shu zaminga mehr qo'ygan, uni yozdagi jaziramasi, qishdagi qahratoni bilan birga qabul qilgan. Ya'ni ba'zan injiq tabiati, noqulay sharoiti bilan ham tillashib, doimiy yashaydigan makonga aylantirgan.

Bugun yurtimizda yuz berayotgan o'zgarishlar, keng ko'lamli islohotlar barcha sohalarida, har bir hududda, jumladan, qishloq xo'jaligida ham bo'y ko'rsatmoqda. Sohada joriy etilgan ana shunday o'zgarishlardan biri klaster tizimidir. Har qanday zamonda yangilikni joriy etish va uni qabul qilish, ommalashib ketishi oson kechmagan. Qolaversa, yangiliklar fermer va dehqonlarga manfaat keltirishi kerak. Hozir butun dunyo bo'yicha oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash dolzarb masala bo'lib turibdi. Shu sabab qishloq xo'jaligiga eng ilg'or,

jumladan, suvni tejaydigan texnologiyalarni, biotexnologiyalarni, urug'chilik, ilm-fan va innovatsiyalar sohasidagi yutuqlarni keng joriy etish talab qilinmoqda.

Yurtimizni yaxshi ko'ramizki, biz ham uning yanada obod, dasturxonı mo'l-ko'l bo'lishi uchun harakat qilyapmiz. Fermer xo'jaligimiz har yili viloyat bo'yicha g'alla va paxta yetishtirishda yaxshi natijalarga erishib keladi. Maqtanishga yo'ymang, bu faxr. Tumanimizdagi “Sirdaryo politex” klaster tizimi yurtimizdagi 100 dan ortiq klaster ichida eng ilg'or va va samarali faoliyat yuritayotgan 15 ta klaster safidan joy olgan.

Insonning niyati, orzulari qanchalik katta bo'lsa, mehnati ham undan zarracha kam bo'lmasligi kerak. Fikrimcha, har bir kishi oilada totuv muhit yarata olishi, jamiyatda faolligi, yaxshi mehnati bilan el-yurtini qanchalar yaxshi ko'rishini bildiradi.

Insonning fazilatları ko'p. Ulardan eng muhimi va umrga mazmun baxsh etadiganlaridan biri imon va mehnatkashlik, deb bilaman. Biz Vatanga mehr-muhabbatimizni bugungidan ham yaxshi natijalarga erishish yo'lidagi intilishimiz va halol mehnatimiz orqali ko'rsatavermiz. Chunki Vatanimiz bunga ishonch ham, rag'bat va imkoniyatlar ham bergan.

Insonning niyati, orzulari qanchalik katta bo'lsa, mehnati ham undan zarracha kam bo'lmasligi kerak. Fikrimcha, har bir kishi oilada totuv muhit yarata olishi, jamiyatda faolligi, yaxshi mehnati bilan el-yurtini qanchalar yaxshi ko'rishini bildiradi.



“Mehrim bermasmidim o'sha muzlarga?”



Matlubaxon VOHIDOVA,
*So'x tumanidagi
“Mulki Bovohid” mas'uliyati
cheklangan jamiyat rahbari,
“Do'stlik” ordeni sohibi*

O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov o'z she'rida shunday yozadi:

“...Qorliklarni makon etgan bo'lsayding,

Mehrim bermasmidim o'sha muzlarga?”

Ha, VATAN imkoniyatlari, tuprog'ı yo havosiga qarab yaxshi ko'rilmaydi. U onaday mukarram bo'lgani uchun ardoqlanadi. Uning yutuqlaridan faxrlanib, shu orqali yurtga mehrimizni izhor etishimiz esa tabiiy.

Men anklav hudud bo'lgan So'x tumanida yashayman. Yaqin-yaqingacha tumanimizdan viloyat markaziga borib-kelish azob bo'lgan. O'shanda Qirg'iziston orqali qatnashga majbur edik. Kundalik hayot tarzimiz uchun muhim bo'lgan suv, gaz, elektr, yo'l, tibbiy xizmat bilan bog'liq oddiy sharoitlar yo'q edi. Sakson mingga yaqin aholi istiqomat qilayotgan tumanda aytishga arzigulik ishlab chiqarish tarmoqlari qurilmagan. Yangi uy-joylar qurish, aholining bu boradagi ehtiyojlarini qoplash o'z holiga tashlab qo'yilgandi.

Keyingi yillarda tumanimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan jadal islohotlar so'xliklar hayot tarzini tubdan o'zgartirdi. Bugungi So'xni avvalgi holati bilan qiyoslab bo'lmaydi. Zamonaviy korxonalar, osmono'par uy-joylar, keng va ravon yo'llar, ichimlik suv, elektr ta'minoti, tibbiy xizmat bilan bog'liq ishlar haqida har qancha gapirsak oz. Bu balandparvoz gaplar emas, ayni hayot haqiqati.

Har bir inson ezgu orzulariga yo'ldosh yashaydi. Bunga erishish uchun, avvalo, Vatanga muhabbat, ota-ona, el-yurtga beminnat xizmat qilish kabi ezgu fazilatlar mujassam bo'lmog'ı shart. Men, avvalo, ona, yurtimning faol ayoli sifatida farzandlarim yonida bo'lishini, olgan bilim va malakalarini shu yurt ravnaqi yo'liga sarflashga chorlayman. Aziz Vatanimizni ko'z qorachig'idek asrash, uning tinchligi va barqarorligini himoya qilish, salohiyatini yanada yuksaltirishga barcha baholi-qudrat hissa qo'shishi kerak.

So'x tumani Qalacha mahallasiga kelin bo'lib tushganimga chorak asrdan oshdi.

Qishlog'imiz tuman markazidan birmuncha olisda joylashgani bois, ishlab chiqarish tarmoqlari yo'q, aksariyat xotin-qiz, yoshlar ishsiz edi. Tikuvchilik malakasiga ega bo'lganim uchun shu yo'nalishda korxona tashkil etish g'oyasi tug'ildi. Dastlab, uy sharoitida tikuvchilikka qiziqqan xotin-qizlarni ishga jalb qildim. “Ustoz-shogird” an'analari asosida “Temir daftar”, “Ayollar daftarı”ga ro'yxatga olingan hamda nogironligi bo'lgan ayollarga kasb sirlarini o'rgatdim. Natijada 20 dan ortiq xotin-qiz bandligi ta'minlandi.

Shuningdek, korxonamiz qoshida makaron ishlab chiqarish loyihasi ishga tushirildi. 50 o'rinni nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatini yo'lga qo'ydik. Mahalla hududida nogiron, ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan oilalarga yangi uy-joylar qurib berdik. Bundan tashqari, So'x tumanida yangi o'zlashtirilayotgan Javpoya massivida 3 gektar yerda yangi bog' yaratyapmiz. Bugunga qadar barcha yo'nalishlarda 50 dan ortiq ish o'mi yaratildi. Davlat-xususiy sheriklik asosida mahalla fuqarolar yig'ini uchun zamonaviy bino qurilishi poyoniga yetdi. Birinchi qavatda mahalla faollari uchun kerakli shart-sharoitlar yaratildi. Yuqori qavatda yoshlar uchun dasturlash, xorijiy tillarni o'qitish yo'nalishida o'quv markazlari tashkil etildi.

Bular o'z-o'zidan bo'layotgani yo'q, albatta. Unga munosib bo'lgan vatansevar farzandlar mehnatining mahsuli. Bunday yurtini sevmay, vatanparvar xalqimiz bilan faxrlanmay bo'ladimi?



Jamshid ZOHIDOV,
*Karmana tumanidagi
“Javlonbek Baraka Non”
oilaviy korxonasi rahbari,
“Faol tadbirkor” ko'krak nishoni
sohibi*

Inson tug'ilgandan keyin yonidagi odamlarni, atrofini birdan anglay olmaydi. Ota-onasi, yaqinlari ovozi nishitadi, ularga ko'nikadi va mehr qo'yadi. Bu jarayon menda qiyinroq kechgani. Sababi, hech kimning so'zlarini va atrof-muhitidagi turli ovozlarni eshitmaganman. Asta-sekin hayotni tushuna boshlagach, dastlab barcha men kabi bo'lsa kerak, deb o'ylandim. Ammo bilsam, bosh-qalar eshitir, gapira olar ekan. Ha, eshitish va so'zlash imkonim bo'lmagan, ya'ni kar

Yurtni sevishni onamdan o'rgandim

Feruza XOLIQOVA,
*Boysun tumanidagi yakka tartibdagi tadbirkor,
hunarmand-kashachi*

“Men nechun sevaman O'zbekistonni?” degan savolga uzoq vaqt javob o'yladim. Axir farzand onasini yaxshi ko'rmasligi mumkinmi? Unga bo'lgan mehrining asl manbası qayerda, qanday ekanini qay yo'sin ifoda etsin?!

Shular haqida o'ylab, hayotim, faoliyatim haqida aytib berishni joiz topdim. Zero, umrimning har lahzaı shu Vatan bilan bog'liq.

Onam bir umr kutubxonada ishladi. Nafaqaga chiqqanida ham kutubxonaga, qadrdon ishxonasiga bir borib kelmasa, xunob bo'lib yurardi. Keyinroq o'zi uyda kutubxona tashkil etdi. Uni o'lkashunoslikka oid kitoblar qatorida hunarmandlik namunalari bilan bezadi. Shu tariqa mo'jazgina kutubxona paydo bo'ldi. Nazarimda, shuning o'ziyoq ishga, yurtga mehr berishning bir ko'rinishi. Ha, Vatanni sevishni onamdan o'rgandim.

O'shanda 6-sinf o'quvchisi edim. Kutubxonamizdagi suratlariga boy “Vatan tarixidan hikoyalar” kitobi qo'limga tushdi. Unda O'zbekiston tarixidagi mohir sarkardalar, yurt ozodligi uchun kurashgan xalq qahramonlari hayoti va kurashlari suratlar vositasida ham ko'rsatib berilgandi. To'marisning o'sha kitobda keltirilgan bosh kiyimi tasviri e'tiborimni tortgan va ilk bor xuddi shunday kashtali bosh kiyim to'qiganman.

Hozir aniq bilamanki, ilk qo'l mehnatim yaxshi chiqmagan. Ammo umr bo'yi

va soqov bo'lib tug'ilganman. Ulg'ayib buni anglay boshlaganimda, atrofimdagi insonlar eshitishi, gapirishini tushunganimda, o'z ahvolidan o'kinganim rost.

Shu aziz yurtimda men kabi insonlar uchun ham boshqalar qatori barcha imkoniyatlar yaratilgan. Tengdoshlarim kabi ta'lim oldim. Ulg'aya boshlagach, boshqalardek emasligim uchun yuragimni qamrab olgan o'kinch hissi asta-sekin meni tark eta boshlagan. Uning o'rmini esa hayotga bo'lgan muhabbat, baxtli yashashga bo'lgan ishtiyoq va jamiyatda o'z o'rnimni topishga bo'lgan shijoat egallay boshlagan.

Hozir hayotimdan mamnunman. Avvalo, Prezidentimiz, davlatimiz tomonidan har tomonlama qo'llab-quvvatlayapmiz. Bu esa menga shu ona Vatan “Sen ham mening farzandimsan”, degandek doimo boshimni silab turgandek tuyuladi. Shunday mehrli Vatanni sevmay bo'ladimi?!

Ulg'ayib, hayotni to'liq anglagach, oila qurdim. So'nggi yillarda yurtimizdagi barcha sohalarida olib borilayotgan islohotlarni muntazam kuzatib boraman. Ayniqsa, tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan e'tiborni alohida aytish kerak. Aynan shu jihat bizning oila uchun ham katta imkoniyat berdi. Turmush o'rtog'imning ham gapirishida nuqsoni bor. Biz maslahatlashib, novvoychilik yo'nalishida oilaviy tadbirkorlikni tashkil etishga qaror qildik. Bu tashabbusimiz qo'llab-quvvatlandi. Bizga har tomonlama ko'mak berildi. Mana bir necha yildan buyon shu faoliyat bilan shug'ullanib, aholiga issiq non yetkazib beryapmiz.

Novvoylik kasbini bobomdan



TARAQQIYOT MEZONI

So‘nggi yillarda mamlakatimizda tadbirkorlikni rivojlantirishni kompleks qo‘llab-quvvatlashning uzluksiz zanjirini yaratish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmog‘da. Ko‘rilgan chora-tadbirlar va muhim qarorlar qabul qilinishi natijasida so‘nggi yetti yilda yangi O‘zbekiston ishbiarmon doira vakillarining yangi avlodi paydo bo‘ldi. Xususan, mamlakatimiz iqtisodiy hayotida muhim o‘rin tutayotgan, nafaqat ichki bozor, balki xalqaro bozorda ham o‘z o‘rniga ega bo‘lib borayotgan yirik xususiy biznes subyektlaridan biri “BMB HOLDING” kompaniyasidir. O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 33 yilligi arafasida “Dunyo” axborot agentligi “BMB HOLDING” asoschisi Bekzod MAMATQULOV bilan suhbatlashdi.

— Keyingi yillarda ushbu holding kompaniya nafaqat O‘zbekistonda, balki xalqaro biznes hamjamiyatida ham katta obro‘ qozondi. Bugungi kunda holding investitsiyaviy loyihalar uchun konsalting xizmatlarini ko‘rsatish, xalqaro biznes va savdo aloqalarini rivojlantirish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, eksport va import, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va zamonaviy agrosanoat klasterlari sohalarida samarali faoliyat yuritmoqda. Suhbatimiz avvalida holdingning tashkil etilishi, rivojlanish tarixi haqida to‘xtalangsiz.

— Shavkat Mirziyoyev Prezident etib saylanishi bilan mamlakatni taraqqiyotning yangi bosqichiga olib chiqish uchun iqtisodiy salohiyatimizni oshirish, investitsiyalarni jalb etish va eng muhimi, tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash kabi muhim masalalarni davlatimiz siyosatining kun tartibiga ko‘ydi.

Shu ma‘noda, tadbirkorlarga yaratilgan imkoniyatlar mening hayotiy maqsadlarimni tubdan o‘zgartirib, biznesda o‘z salohiyatimni sinab ko‘rish istagini uyg‘otdi. Ilk daromadimizni xizmat ko‘rsatish orqali topganmiz. Ya‘ni biznes rejalari ishlab chiqish, konsalting xizmatlarini ko‘rsatish bizning daromad manbami bo‘lgan. Keyinchalik qishloq xo‘jaligida o‘ylab yurgan loyihalarni hayotga tatbiq etish maqsadida Jizzax viloyatining Armasoy tumanidan yer oldik. Bu yerga ikkilamchi ekin sifatida mosh, no‘xat ekdik. Birinchi urinishlarimiz zoye ketmadi. Yetishtirgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari o‘zimiz kutganimizdan ham yaxshi natija berdi. Birinchi marta yetishtirgan hosilimizni xorijga eksport qilishga erishdik. Jumladan, ularni Pokiston, Hindiston, Afg‘onistonga sota boshladik. Keyinchalik davlatga shartnoma asosida paxta, g‘alla yetkazib berish rejasini oldik va shundan daromad qilib, asta-sekinlik bilan moliyaviy imkoniyatlarimizni kengaytirdik.

2017-yilda Prezidentimizning Jizzax viloyatiga tashrifi doirasida Armasoy tumanida oziq-ovqat klasterini tashkil etish bo‘yicha loyihamiz taqdim etildi. Uchrashuvda davlatimiz rahbari barcha tadbirkorlar qatori menga katta ishonch bildirdi. Bu qo‘shimcha kuch bag‘ishladi. Shundan so‘ng tadbirkorlik faoliyatimni yanada kengaytirish, o‘zimni yangi tarmoqlarda sinab ko‘rish, xorijiy sheriklar bilan qo‘shma loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish istagi paydo bo‘ldi. Natijada yurtimizda birinчилardan bo‘lib eng yirik paxta klasterini tashkil etishga muvaffaq bo‘ldik. Dorivor o‘simlik yetishtirish klasterini, ya‘ni za‘faron brendini yaratdik. Keyinchalik esa meva-sabzavotchilik klasterini tashkil etdik. Ushbu yirik loyihamiz, o‘z navbatida, meva va sabzavotlarni saralash, qadoqlash, chuqur qayta ishlash tizimini yo‘lga qo‘yish imkonini berdi. Shu tariqa biznesning turli bosqichlaridan o‘tib, kichik loyihamiz bugungi kunga kelib, “BMB HOLDING” sifatida shakllandi. Hozirgi paytda holding 30 ta korxonani birlashtiradi. Ularda butun yurtimiz bo‘ylab olti mingdan ortiq ishchi-xodimning bandligi ta‘minlangan.

— Aytib o‘tganimizdek, holding bugun xalqaro va milliy miqyosda investitsiyaviy loyihalarini amalga oshirmog‘da. Xorijiy mamlakatlardagi biznes muhitidan yaxshi xabardor kishi sifatida so‘nggi yillarda O‘zbekistonda ishbiarmon doiralari vakillari uchun yaratilgan investitsiyaviy muhitni qanday baholaysiz. Sizni qoniqtirmaydigan jihatlari, biznes uchun to‘siq bo‘layotgan omillar ham bormi?

— Yangi O‘zbekistonni barpo etish jarayonida tadbirkorlar uchun qulay investitsion muhit yaratish davlatimiz rahbari islohotlarining bosh maqsadlaridan biriga aйлandi. Soha vakillarining huquqiy jihatdan qo‘llab-quvvatlanishi bugungi kunga kelib, o‘z natijasini bermog‘da.

O‘zbekistonda soliq qonunchiligining takomillashtirilishi, valyutani erkin konvertatsiya qilish imkoniyati yaratilishi, xususiy yer, mulk sohasidagi islohotlar va shu kabi sohaga oid bir qator boshqa ijobiy o‘zgarishlar tadbirkorlarning mamlakat iqtisodiyoti

Tajribamdan kelib chiqib, bir misol keltirmoqchiman. Prezident bilan muloqot oldidan faoliyatimizda duch kelayotgan masalalarni yon daftarchamga belgilab yuraman. Barcha savollarimga esa Prezidentimizning chuqur tahlillarga asoslangan ma‘ruzalarini eshitgach, to‘liq javob topaman.

YURTIMIZDA ISHBILARMONLARNI QO‘LLAB-QUVVATLASH

islohotlarning bosh maqsadlaridan biriga aylangan



yetakchilari sifatida namoyon bo‘lishida muhim ahamiyat kasb etdi. 2020-2022-yillarda butun dunyoda koronavirus pandemiyasining avj olishi mamlakatlar iqtisodiyotiga, jahon investition muhitiga katta salbiy ta‘sir ko‘rsatishiga qaramay, O‘zbekistonda iqtisodiy o‘sinh sur‘atlari minimal barqarorlikda saqlanib qolindi hamda investitsiyaviy jozibadorlik tendensiyasi o‘shida davom etdi. Bular xalqaro biznesning iqtisodiy islohotlarga bo‘lgan ishonchidan dalolat beradi. Iqtisodiyotni faol diversifikatsiya qilish muhim yutuq bo‘lib, u investorlar uchun barcha sohalarida yangi imkoniyatlar ochib berdi.

— “BMB HOLDING” O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining keng turli-rni ishlab chiqarish va eksport qilish bilan shug‘ullanadi. Xususan, za‘faron yetishtirishda katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Bugungi kunda O‘zbekistonda yetishtirilgan za‘faron o‘simligi dunyoning ko‘plab mintaqalarida xaridorgir bo‘lib boryapti. Aytg‘chi, O‘zbekistonga za‘faron yetishtirish kabi qiyin sohaning faoliyatini yo‘lga qo‘yish maqsadi qachon paydo bo‘ldi va nega aynan shu o‘simlikni ekish loyihasini tanladingsiz?

— 2017-yilda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Qashqadaryo viloyatiga amalga oshirgan tashrifi chog‘ida tog‘, tog‘oldi hududlarida dorivor g‘yohlarni yetishtirish, yurtimizda bu sohani rivojlantirish hamda qimmatbaho dorivor o‘simliklarni jahon bozoriga eksport qilish masalasi ustuvor vazifa etib belgilangan edi. Shuningdek, mamlakatimiz yetakchisi tomonidan O‘zbekistonda barcha sharoitlar bo‘lsa-da, nega za‘faron yetishtirish mumkin emas, degan savol qo‘yilib, ushbu tarmoqni rivojlantirish bo‘yicha alohida ko‘rsatma berildi. Keyinroq Prezidentimizning Jizzax viloyatiga tashrifi davomida za‘faron yetishtirish bo‘yicha loyihamizni taqdimot qildik. Davlatimiz rahbari loyiha bilan tanishgach, uni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashini bildirib, mas‘ul mutasaddilarga dasturni tezroq ro‘yobga chiqarish bo‘yicha ko‘rsatma berdi.

To‘g‘risi, boshida bu loyihani amalga oshirish oson bo‘lmadi. Avvalo, ichki va tashqi bozordagi talab va taklif tahlil qilindi. O‘zbekiston sharoitida g‘oyaning imkoniyati

va istiqbollari, o‘zimizning bu boradagi salohiyatimiz hamda boshqa bir qator omillar chuqur o‘rganildi. Nihoyat 2020-yilda, pandemiya sharoitida ushbu loyihani amalga oshirishga kirishdik. Dastlab mutaxassislarni topish, Yevropadan iqlimimizga mos za‘faron piyozboshlarini keltirish va undan ko‘zlanganidek hosil olish darajasigacha yetib borish uchun yetarlicha mehnat qilindi. Birinchi yili 55 gektar yerga za‘faron piyozboshlarini ekdik. Yig‘ishtirib olingan hosilga talabning yuqoriligi hamda to‘plangan tajriba loyihani yanada rivojlantirish va kengaytirish istagini tug‘dirdi. Bugungi kunda 400 gektar yerda za‘faron o‘simligi yetishtirilmoqda. Kelgusi 3 yilda uning plantatsiyalari qamrovini 1000 gektarga yetkazish va yiliga 20 tonna mahsulot olish rejalashtirilgan.

“BMB Za‘faron” mahsuloti 2024-yil boshida mintaqamizda birinchi bor o‘zbek za‘faronining Amerika bozorlariga kirishiga imkon beruvchi “USDA Organic” (AQSH Qishloq xo‘jaligi vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan ekologik sertifikat) sertifikatiga ega bo‘ldi. Baxmal tumanida yetishtirilgan o‘zbek za‘faroni esa bir necha yillik chuqur va tahliliy tekshiruvlardan keyin O‘zbekiston va Xitoy doralararo komissiyasi xulosasiga ko‘ra, Xitoy bozorlariga eksport qilish bo‘yicha tegishli ruxsatnomani oldi.



— To‘g‘ri, o‘tgan yillar davomida za‘faron yetishtirish borasida katta tajriba to‘plandi. Shu bilan birga, xalqaro standartlar va bozorlar talablariga javob beruvchi raqobatbardosh mahsulot yetishtirish uchun qaysi davlatlar tajribasini o‘rganish va tatbiq etish kerak, deb o‘ylaysiz?

— Qishloq xo‘jaligida har bir mahsulotni yetishtirishning o‘ziga xos usullari mavjud. Italiya, Avstriya, Janubiy Koreya, AQSH, Saudiya Arabistoni kabi davlatlarning za‘faron yetishtirish bo‘yicha yetarlicha tajribasi bor. Albatta, iqlim sharoiti biznikiga yaqin mamlakatlar tajribasini o‘rganib, soha mutaxassislari bilan ish olib boryapmiz. Aytishim mumkin, za‘faronidan ko‘proq hosil olish va uni xorijga eksport qilish uchun barcha imkoniyatlarimizni safarbar qilganmiz. Eksport hajmining ortishi, o‘z navbatida, O‘zbekistonga xorijiy valyuta oqimi ko‘payishiga va iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashga hissa qo‘shadi.

Yetishtirilgan milliy mahsulotlarimizni jahon bozoriga olib chiqish va raqobatbardoshligini oshirish uchun, birinchi navbatda, sifat, keyin esa narx va albatta, ishlab chiqarish quvvatlarining talab darajasiga muvofiqligi eng muhim



omillardan hisoblanadi. Biz ishimizda va amalga oshirayotgan loyihalarimizda, xususan, za‘faron yetishtirishda ana shu jihatlarni hisobga olganmiz.

— O‘zbekistonda davlatimiz rahbari tashabbusi bilan har yili tadbirkorlar bilan ochiq muloqot o‘tkazish formati joriy etildi. Aytg‘chi, mazkur sa‘y-harakatlar holding faoliyatiga nechog‘liq ta‘sir ko‘rsatmoqda?

— Avvalo, shuni qayd etish kerakki, Prezidentimizning siyosiy irodasi bilan sohani rivojlantirishning tashkiliy-huquqiy asoslari mustahkamlandi, tadbirkorlarga e‘tibor tubdan o‘zgardi. Eng asosiysi, davlat rahbarining sohaga bo‘lgan alohida e‘tibori bugun o‘zining ijobiy samarasini beryapti. Prezidentimizning tadbirkorlar bilan ochiq muloqotiga keladigan bo‘lsak, menimcha, bunday institut dunyoning hech bir davlatida yo‘q. Ishonch bilan aytishim mumkin, an‘anaga aylanib ulgurgan mazkur yirik tadbir yangi O‘zbekistonda yangicha fikrlaydigan, raqobatga chidamli tadbirkorlar sinfi shakllanishida muhim omil bo‘lib xizmat qilayotir.

Ish yuzasidan ko‘plab mamlakatlarda bo‘laman. Xususan, Italiya, Germaniya, AQSH, Avstriya va boshqa davlatlardagi hamkorlarim O‘zbekiston Prezidentining tadbirkorlar bilan har yilgi muloqotini alohida e‘tirof etadi. Prezidentimizning tadbirkorlar bilan uchrashib, sohadagi tizimli muammo va masalalarni eshitib, ularga yechim topib berishi ikkala tomon uchun ham katta yutuq aslida. Bu uchrashuv tadbirkorlarni o‘zlarining bir yillik faoliyatlariga baho berish va istiqbolli rejalarni belgilab olishida ham muhim muloqot maydoniga aylangan. Mamlakatimiz yetakchisining ochiq muloqotdagi ma‘ruzasi va sohani yanada rivojlantirish, mavjud to‘siqlarni olib tashlash, ishbiarmonlarga imtiyozlar taqdim etishga qaratilgan muhim tashabbuslari esa tadbirkorlar faoliyatini yanada kengaytirish uchun dasturulamali bo‘lib xizmat qilmoqda.

Tajribamdan kelib chiqib, bir misol keltirmoqchiman. Prezidentimiz bilan muloqot oldidan faoliyatimizda duch kelayotgan masalalarni yon daftarchamga belgilab yuraman. Barcha savollarimga esa Prezidentimizning chuqur tahlillarga asoslangan ma‘ruzalarini eshitgach, to‘liq javob topaman.

— 2022-yil avgust oyida O‘zbekiston Prezidenti farmoyishi bilan “Faol tadbirkor” ko‘krak nishoni, 2023-yilda esa “Do‘stlik”

ordini bilan taqdirlandingsiz. Tadbirkorlik faoliyatigiz davlatimiz rahbariyati tomonidan yuksak e‘tirof etilgan onlarni yodga olib o‘tsangiz.

— Savolga javob berishdan avval bir narsani aytib o‘tmasam bo‘lmaydi. Gap shundaki, biznesga kirib kelishimdan oldin qator davlat va jamoat tashkilotlarida 15 yildan ortiq vaqt davomida ishlaganman. Lekin davlat mukofoti u yodga tursin, hatto biror marta bo‘lsa-da, faxriy yorliq olgan emasman. Bugun esa jonajon yurtimiz — O‘zbekiston taraqqiyoti uchun chin dildan mehnat qilgan kishi bo‘ri, davlatimiz va mamlakatimiz rahbarining e‘tiborida. Yurtimiz oldidagi kichik mehnatlarimiz e‘tirof etilgani faqat menga berilgan baho emas, bu holding tizimidagi ishlayotgan minglab fidoyi insonlar mehnatining e‘tirofidir. Bizga berilgan davlatimizning bunday yuksak mukofotlari, jamoamizga yanada ishonch, motivatsiya beradi, oldimizga qo‘yilgan maqsadlarni amalga oshirishimiz uchun juda katta kuch bag‘ishlaydi.

— Xorijiy investitsiyalarni jalb etish, yangi hamkorlarni topish va milliy mahsulotlarni eksport qilishda iqtisodiy diplomatiya yo‘nalishi muhim ahamiyat kasb etayotir. Siz rahbarlik qilayotgan holding mazkur jabhada mamlakatimizning xorijiy davlatlardagi diplomatik vakolatxonalari imkoniyatidan foydalanadimi? Qisqa qilib aytganda, elchixonalarimizning bu boradagi ishlaridan qanchalik qoniqliq hosil qilyapsiz?

— To‘g‘risini aytish kerak, avvallari diplomatlar bilan uchrashish imkonsiz edi. Biror-bir xorijiy davlatga borib, mamlakatimiz elchisi bilan uchrashmoqchi bo‘lsangiz ham u tadbirkorni qabul qilmas edi. Bu ochiq gap. Elchi faqat siyosat bilan shug‘ullanardi. Prezidentimizga katta rahmat, elchini nafaqat siyosat, balki iqtisodga ham jalb qildi. Bu, albatta, tadbirkorlar uchun katta sharoit va imkoniyat eshiklarini ochdi. Shuningdek, ushbu sohadagi ochqlik, o‘z navbatida, tadbirkor uchun xorijiy hamkorlarni topish, investitsiyalarni jalb qilishda muhim qadam bo‘ldi.

Bugungi kunda holding faoliyatida O‘zbekistonning xorijiy mamlakatlardagi diplomatik vakolatxonalarning o‘rni juda-dayam katta, amalga oshirayotgan ko‘pl



Muhammadqul Jonmurod o‘g‘li (Po‘lkan baxshi) tavalludining 150 yilligi

Turli xalqlarning milliy o‘zligini, ularning tili va hayot tarzini, an‘ana va urf-odatlarini ifoda etadigan baxshichilik san‘ati umumbashariy madaniyatning uzviy qismi sifatida barchamiz uchun qadrlidir.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

Milliy o‘zlikni TARANNUM ETIB

yoxud kirill imlosini yaxshi bilmagani uchun
savodsizga chiqarilgan baxshi

Shahar bolasi emasmanmi, o‘spirinlik davringacha baxshilar kim, baxshichilik nima bilmasdim. Sobiq itifoq o‘quv darsliklarida bu mavzu juda cheklangan edi. Sirasini aytganda, shahar sharoitida bunga qiziqtiruvchi muhit ham bo‘lmagan.

U davrlar baxshilarning chiqishlarini onda-sonda televideniye orqali kuzatish mumkin edi, do‘mbira va baxshi ovozi uzoq tinglab o‘tirishga sabr qayogda... Mana endi-endi baxshining yonida turib, asrlar osha o‘tib kelayotgan dostonlarni jonli eshitish umuman boshqacha ekanini anglayapmiz.

Maktabni bitirish arafasida bir kuni nimadir sabab bilan do‘stim Jahongirning uyiga bordik. Uning otasi Otayor aka — shoir, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi edi. Taniqli yozuvchi, dramaturg Mashrab Boboyev bilan matn terish mashinkasini chiqillatib, qandaydir asarning tahriri ustida ishlab o‘tirishgan ekan. Bizni ko‘rib, Otayor akaning yuzi yorishib ketdi, qo‘lidagi 3-4 varaq qog‘ozni uzatdi.

— Jahongir, yaxshi kelib qoldinglar, vaqt ziq, ulgura olmayapmiz. Manavi maqolani o‘rtog‘ing bilan bir ustidan o‘qib, xatolarini ko‘rib beringlar.

Shunday odamlar bildirgan ishonchdan boshimni aylanib, topshiriqni bajarishga kirishdik. Bizga berilgan matn qaysidir jurnal uchun baxshichilik mavzusida yozilayotgan kattagina maqolaning kirish qismi ekan. Keyinchalik Jahongirning aytishicha, Otayor aka Yozuvchilar uyushmasi folklor kengashini raisi o‘rinbosari sifatida mavzu bilan alohida shug‘ullangan, yurtimizning barcha viloyatlarini kezib chikqan, baxshilar, baxshichilik haqida ko‘plab maqolalar yozgan, kitob chiqargan.

Xullas, o‘sha kuni baxshilar haqida maqolaning tayyor bo‘lishiga do‘stim bilan mening ham hissam qo‘shildi. Boz ustiga menda baxshichilik borasida dastlabki taassurotlar shakllana boshladi. Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, Ergash Jumanbulbul, Muhammadqul Jonmurod o‘g‘li Po‘lkan, Islom shoir, Bola baxshi, Yodgor baxshi, Umarqul Po‘lkan, Chori baxshi va Qodir baxshi kabi ismlarga ilk bor duch keldim.

Ilmiy manbalarda shunday ta‘rif keltiriladi: “Baxshi — terma, qo‘shiq va dostonlarni saqlovchi, yoddan kuylovchi, aytuvchi, avloddan-avlodga yetkazuvchi san‘atkor, xalq dostonchisi. Baxshi xalq turmushi va madaniyatini, o‘zi yashab turgan yurt tarixini va biror cholg‘u chalishtirish bilishi, xonandalik san‘atini puxta egallagan bo‘lishi kerak. U jonli xalq tilining turi shakllaridan, so‘z o‘yinlari va qochirmlaridan, xalq maqollari va iboralaridan unumli foydalana olishi lozim”.

Shu bois bo‘lsa kerak, baxshi deganda, ko‘z o‘ngimizda soch-soqollari oqargan, biyron so‘zlovchi va hozirjavob,

donishmand nuroniyning obrazi namoyon bo‘ladi. Yurtimizda hozir baxshichilik san‘ati festival va tanlovlarida tobora yosh yigitlar va hatto qizlar ham do‘mbira chertib, doston va termalarni baralla kuylamogda. Baxshichilik o‘z an‘ana, maktab va istiqboliga ega san‘atga aylandi.

Ayniqsa, keyingi yillarda milliylikni teran anglash va yoshlarda milliy qadriyatlar bilan faxrlanish tuyg‘ularini mustahkamlash, vatanimiz hududi insoniyat madaniyatining ilk beshiklaridan bo‘lganligi dalillarini jahon hamjamiyatiga yetkazish borasida amalga oshirilayotgan ishlar tahsinga sazovor.

Bu darajaga o‘z-o‘zidan yetib kelinmadi, albatta. Sobiq sho‘rolar davri mafkurasida oqibatida Navro‘z bayrami kabi qadriyatlarimiz qatori baxshichilik san‘ati ham ko‘p tazyiqlarni boshidan kechirdi. Turli katta-kichik yig‘ilishlarda baxshilarga “baqiroq chol” tamg‘alari yopishtirildi.

— Mustabid tuzum o‘zining so‘nggi nafasini olayotgan yillar edi, Jarqo‘rg‘onga Markaziy Qo‘mita kotibi kelib, Navro‘z bayramini taqilqlash bo‘yicha katta yig‘ilish o‘tkazdi, — deb xotirlaydi O‘zbekiston Respublikasi san‘at



arbohi, professor Tursunali Qo‘ziyev. — “Bilib qo‘ylaring, bizda Navro‘z bayrami va baxshilar hech qachon bo‘lmaydi. Shu sababli hamma mas‘ullarning o‘zlari ham, yaqinlari,

xodimlari ham Navro‘z bayramida qatnashmasin, baxshilar-u oqinlar bunday tadbirlarga jalb qilinmasin. Ko‘rsatmani buzganlarga nisbatan qattiq chora ko‘rilishi haqida ogohlantirilsin”, deb o‘shqirgan paytlarni ham ko‘rdik.

So‘nggi yillarda madaniy va moddiy merosimiz butun dunyoga keng tarannum etilmoqda. Navro‘z millatlararo qadriyat sifatida UNESCO ro‘yxatidan mustahkam joy oldi. Mazkur nufuzli tashkilot shafeligida O‘zbekiston tashabbusi bilan baxshichilik san‘ati tufayli bizlarga yetib kelgan “Alpomish” dostonining 1000 yilligi jahonda keng nishonlandi. Doston turli tillarda nashr etildi, u aynan baxshilar tufayli yo‘qolib ketmay, shu kungacha yetib keldi va umumjahon madaniy merosiga, ma‘naviy mulkiga aylandi.

Shuningdek, baxshichilik san‘ati jahon nomoddiy madaniy merosning Reprezentativ ro‘yxatiga kiritildi, bu ham xalqaro hamjamiyat uchun muhim ahamiyatga ega voqea. Ushbu qaror baxshichilikni asrab-avaylash va rivojlantirishda bundan buyon O‘zbekiston bilan UNESCO hamkorligi har tomonlama rivojlanishini anglatadi. Endi “Baxshichilik san‘ati” tushunchasi butun dunyoda keng targ‘ib qilinadi, bu madaniyat yo‘qolib ketmaydi, aksincha, rivoj topib boraveradi.

O‘zbek dostonchiligida xalq eposi namunalarini, mazkur san‘at turini oliy darajada ijro etgan baxshilar juda ko‘p bo‘lgan. O‘nlab ulkan san‘atkorlar asrlar davomida asl farzandlar tomonidan yaratib kelingan dostonlarni mehr bilan aytib mahalliy aholi o‘rtasida shuhrat topdi. Ularni san‘at muxlislari baxshi, shoir nomlari bilan e‘zozladi. Ana shunday tillarda doston bo‘lgan iqbol sohiblaridan biri, atoli xalq baxshisi, nomi o‘zbek dostonchilik maktabi asoschilari qatorida turuvchi baxshi Po‘lkan shoiridir.

Yurtimizda baxshilar va baxshichilikka e‘tibor yana kuchayib, ularning boy merosi targ‘ib qilinayotgani ortidan joriy yil Muhammadqul Jonmurod o‘g‘li (Po‘lkan baxshi) tavalludining 150 yilligi keng nishonlandi.

— Bu haqda 2024-yil 14-fevral kuni Vazirlar Mahkamasining farmoyishi qabul qilingan, — deydi Respublika baxshichilik san‘ati markazi direktorining ijodiy masalalar bo‘yicha o‘rinbosari Zafariddin Temirov.

— Unga ko‘ra, mamlakatimizda adabiyot, madaniyat va san‘at, ilm-fan sohalarini rivojlantirish, o‘zining betakror ilmiy va ijodiy merosi, ijtimoiy faoliyati bilan xalqimiz ma‘naviyatini yuksaltirishga ulkan hissa qo‘shgan bir qator millatimiz oydinlarining tavallud sanalari munosabati bilan faoliyatlarini chuqur o‘rganiladi va targ‘ib etiladi.

Qayd etish kerak, yuqoridagi nomi tilga olingan hujjat bilan mazkur vazifalar ijrosini samarali amalga oshirish maqsadida dastur ham tasdiqlangan. Unda belgilangan tadbirlarni o‘z vaqtida va sifatli tashkil etish yuzasidan respublika va

ASRIY AN‘ANALARNI ULUG‘LAGAN

hunarmand



munosib baholalanib, Prezidentimizning yaqinda e‘lon qilingan farmoyishiga asosan, “Faol tadbirkor” ko‘krak nishoni bilan taqdirlandi.

Tadbirkor, shuningdek, an‘ana va qadriyatlarini saqlash, keyingi avlodlarga qoldirish maqsadida 200 dan ortiq ekspozitaga ega muzey tashkil qilgan. Muzeyga keluvchilar ham ko‘p.

Qora uyni yasash jarayoni o‘zgacha. Avvalo, tol daraxti shoxlari kesib olinib, ular archiladi va quritiladi. So‘ng suvga solib ivitiladi. Yog‘och ivigach, egib, keraga yasaladi. Uyingning doira shaklidagi tepa qismi oq taldan, erganakni ya‘ni bo‘sa‘gani, (eshik) peshonasini emandan, agar eman topilmasa, o‘rik daraxtidan yasashadi. Shanaraq — bu oila, degan ma‘noni anglatadi. Shuning uchun xam o‘tovning tepasidagi doira qismini shanaraq, deb atashadi. O‘tov



hajmi buyurtmaga qarab, 6, 8, 12, 16, hatto 30 qanotgacha kattalashib boraveradi. 6 qanotli uyingning aylana shakli 5 metr 30 santimetrga teng. Unga 15 kishi bemalol joylashadi. Aytib o‘tganimizdek, usta-tadbirkor Azamat Turekeyev jamoasi yasagan o‘tovlar milliylik bilan alohida ajralib turadi. Shu bois, ularga ham o‘zimizda, ham xorij davlatlarida qiziqish yuqori.

Nodir MAHMUDOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Boqiy meros

Minajatdin
QUTLIMURATOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Gap shundaki, so‘nggi paytlarda uni uzoq joylardan izlab kelib, buyurtma beruvchilar soni ancha ko‘paygan. Bitta o‘tovni to‘liq ishlab chiqish uchun esa qirg‘un kun vaqt sarflanadi. Bir nechta bosqichlardan o‘tadigan qora uy yasashning o‘ziga xos mashhaqqati bor. Masalan, ayollar o‘tovning shiylarini to‘qisa, yana biri kigiz bosadi. Hunarmand qizlar bog‘lov iplarini tayyorlaydi. Shu asosda milliylikni o‘zida mujassam etgan o‘tov paydo bo‘ladi.

— Chimboy tumani azaldan qoraqalpog‘ xalqining boy madaniy meroslari va dasturlari, milliy hunarmandchilik va ustachilik turlari

meros bo‘lib kelayotgan hudud hisoblanadi. O‘tov tayyorlash ham qoraqalpog‘larning o‘ziga xos an‘anasi. Shu bois, ushbu hunar otadan bolaga meros sifatida o‘tib kelmoqda, — deydi Azamat Turekeyev. — Jumladan, o‘zim uchinchil avlod vakiliman. Azaliy an‘analimizni davom ettirish, uni rivojlantirish maqsadida ushbu hunarni davom ettiryapman. Albatta, bundan faxrlanaman. Qilgan mehnatlarim, avvalo, xaridorlar tomonidan e‘zozlansa, ayni paytda davlatimiz tomonidan ham yuksak baholalanib kelinmoqda.

Azamat Turekeyev Prezident sovrini uchun o‘tkazilgan “Tashabbus” ko‘rik-tanlovining Qoraqalpog‘iston Respublikasi va mamlakat bosqichlarida bir necha bor sovrindor hamda nominatsiyalar g‘olibi bo‘lgan. Yurtimiz hamda xorijiy davlatlarda o‘tkazilayotgan nufuzli ko‘rgazma, festivallarda uning o‘tovlari faol namoyish etib kelinadi. Tadbirkorning mana shunday kamtarona, lekin samarali mehnati

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalarini tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Kolopak” MCHJ mas‘ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 2808.

41126 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

“Kolopak” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: O‘zbekiston, 100060.
Toshkent, Yangi shahar ko‘chasi, 1-A uy.
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Risolat Madiyeva
Musahhih: Sherzod Mahmudov
Dizayner: Zafar Ro‘ziyev

Manzillimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘ch